Biroq bugungi kundagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, franchayzing tizimining O'zbekiston bo'yicha rivojlanish sur'atlari hududlar kesimida notekis kechmoqda. Yirik shaharlar — Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona kabi markazlarda franchayzing tarmoqlari faol ishlayotgan bo'lsa-da, ayrim viloyatlarda ushbu tizimning deyarli mavjud emasligi kuzatilmoqda. Bu holat iqtisodiy rivojlanishning hududiy nomutanosibligiga olib kelmoqda.

Mazkur nomutanosiblikka olib keluvchi omillar tahlil qilinarkan, birinchi navbatda iqtisodiy, demografik, institutsional va infratuzilmaviy omillar muhim rol o'ynayotganini ta'kidlash lozim. Jumladan, aholining tovar va xizmatlarga bo'lgan to'lov qobiliyati, tadbirkorlik muhiti, transport-logistika infratuzilmasi, raqamli infratuzilma, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, investitsiyaviy muhit kabi omillar franchayzing tizimining hududiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, mahalliy boshqaruv organlarining franchayzing bo'yicha yetarli ma'lumotga ega emasligi yoki ushbu yo'nalishda qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining sustligi ham franchayzing tizimining kengayishiga to'sqinlik qilayotgan omillar sirasiga kiradi.

Shu sababli, mamlakat hududlarida franchayzing tizimini rivojlantirish masalalarini tizimli ravishda o'rganish, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, hududlar kesimida ilmiy asoslangan modellashirishni amalga oshirish hamda natijaviy takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyotining zamonaviy bosqichida franchayzing modeli kichik biznesni rivojlantirish, innovatsiyalarni tarqatish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda. Xususan, agentlik nazariyasi doirasida (Rubin, 1978) franchayzing franchayzer va franchayzi o'rtasidagi asimmetrik axborot muammolarini bartaraf etish hamda monitoring xarajatlarini kamaytirish orqali samaradorlikka erishishni ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin etiladi. Transaksion xarajatlar nazariyasiga ko'ra (Williamson, 1985), mazkur model bozor va ierarxiya o'rtasidagi muvozanatli shakl hisoblanib, unda ishonchlilik va rentabellik har ikki tomon uchun asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, resursga asoslangan yondashuv (Barney, 1991) franchayzing tizimining muvaffaqiyatini franchayzerga tegishli intellektual mulk, nou-xau, tajriba va brend qiymati kabi noyob resurslar mavjudligi bilan izohlaydi. Mazkur nazariy yondashuvlarning har biri hududiy kontekstda franchayzing rivojini tahlil qilish uchun muhim ilmiy asos va tahliliy vositalarni taqdim etadi.

Hududiy iqtisodiyotni o'rganish doirasida Porterning (1998) klaster nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyada hududiy raqobatdosh ustunliklar klasterlar orqali shakllanishi, innovatsion faoliyat esa hududiy muhit bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Innovatsion rivojlanish nazariyalari va regional transformatsiya modellariga ko'ra, iqtisodiy jarayonlar markazdan periferiya tomon resurslar va investitsiyalar oqimi orqali yoyiladi. Mazkur yondashuvlar franchayzing tizimining hududiy omillarga sezgirligini ilmiy jihatdan asoslaydi. O'zbekiston sharoitida ushbu nazariyalarni amaliy qo'llash turli viloyatlar kesimida franchayzing rivojlanishidagi farqlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Tadqiqotda adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida xorijiy ilmiy manbalardan keng foydalanildi. Jumladan, Lafontaine va Shaw (2005) franchayzing samaradorligini AQSh misolida mikroiqtisodiy tahlil asosida o'rgangan bo'lsa, Dant va Kaufmann (2003) global franchayzing muhitidagi institutsional muammolarni tahlil qilgan. Gernigon va Chadwick (2010) esa franchayzing tizimlarining rivojlanish bosqichlari, yuridik muhit hamda qonuniy asoslar bilan bog'liq xavf-xatarlarni aniqlagan. Ushbu ilmiy yondashuvlar O'zbekiston sharoitida franchayzing tizimida mavjud muammolarni aniqlash va ular bo'yicha mos strategiyalar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodologik jihatdan mazkur tadqiqotda panel regressiya tahlili asosiy empirik vosita sifatida tanlandi. Panel ma'lumotlar modeli vaqt va hududlar kesimida o'zgaruvchilarning ta'sirini aniqlashda samarali uslub hisoblanadi. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida hududiy yalpi ichki mahsulot (YaIM), aholi soni, internet qamrovi darajasi, tadbirkorlik subyektlari soni hamda umumiy investitsiyalar hajmi belgilandi. Ushbu o'zgaruvchilar asosida ikkita panel model — fiksed effekt (Fixed Effect) va random effekt (Random Effect) modellari qurildi. Hausman testi natijalariga ko'ra optimal model sifatida fiksed effekt modeli tanlab olindi.

Panel regressiya modeli quyidagi matematik ifoda orqali ifodalanadi:

$$Y_{it} = \alpha_i + \beta_1 X_{1it} + \beta_2 X_{2it} + \dots + \beta_n X_{nit} + \varepsilon_{it}$$

bu yerda:

Y_{it} — i-hududdagi franchayzing subyektlari soni,

X_{nit} — mustaqil o'zgaruvchilar,

α_i — hududiy konstanta,

ε_{it} — tasodifiy xatolik atamasi.

Model R dasturiy ta'minoti yordamida baholandi va statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega natijalarni berdi.

Metodologik yondashuvning ikkinchi bosqichida matematik modellashtirish vositalari jalb qilindi. Unda past rivojlangan hududlarda franchayzingni joriy etish bo'yicha optimallashtirish modellari ishlab chiqildi. Maqsad funksiyasi sifatida franchayzing tarmoqlari orqali olinadigan iqtisodiy foyda (Z)ni maksimallashtirish belgilandi:

$$\max Z = \sum_{i=1}^n w_i \cdot F_i$$

bu yerda:

F_i — i-hududdagi franchayzingdan kutilayotgan foyda,

w_i — mazkur hudud uchun belgilangan ustuvorlik koeffitsienti.

Cheklovlar byudjet hajmi, infratuzilma mavjudligi va iste'mol bozori sig'imi asosida shakllantirildi.

Mazkur yondashuv matematik iqtisodiyot nazariyasini zamonaviy amaliyot bilan integratsiyalash imkonini beradi. Ya'ni, tahlil faqat statistik bog'liqliklarni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, real iqtisodiy muhitda samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqishni ham ta'minlaydi. Hududlar kesimida franchayzingning qaysi tarmoqlarini joriy etish mumkinligi, zarur infratuzilma turlari hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari modellashtirilgan holda aniq ko'rsatib berildi. Bu holat strategik rejalashtirish jarayonida muhim analitik vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlarni tizimli tahlil qilish va zamonaviy iqtisodiy-matematik metodlardan foydalanish asosida shakllantirilgan metodologik yondashuv franchayzing tizimining hududiy rivojlanish xususiyatlarini chuqur ochib beradi. Ushbu tadqiqot yondashuvi O'zbekistonda franchayzing tizimini kompleks rivojlantirish, davlat siyosatini maqsadli yo'naltirish hamda xususiy sektorning faol integratsiyasini ta'minlash uchun mustahkam nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda franchayzing faoliyatining hududiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi makro- va mikro darajadagi omillarni panel regressiya tahlili yordamida aniqlash, har bir omilning nisbiy ta'sirini baholash, shuningdek, past rivojlangan hududlar uchun matematik modellashtirilgan strategiyalar asosida franchayzingni jalb etish mexanizmlarini ishlab chiqish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Ushbu yondashuv orqali nafaqat mavjud holatning chuqur iqtisodiy tahlilini amalga oshirish, balki istiqbolli yo'nalishlarni belgilab olish, strategik rejalashtirish hamda resurslarni optimal taqsimlash imkoniyati yuzaga keladi. Ayniqsa, raqamli infratuzilma darajasi past bo'lgan hududlarda franchayzing modelini tatbiq etishda sun'iy intellekt, big data tahlillari, blokcheyn asosidagi boshqaruv tizimlari kabi zamonaviy raqamli yondashuvlar yordamida mavjud muammolarni



hal etish mumkin bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy tadqiqot franchayzing modelining hududiy iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonning 12 ta viloyati bo'yicha panel ma'lumotlar bazasi shakllantirilib, unda franchayzing subyektlari soniga iqtisodiy omillar (hududiy YAIM, investitsiyalar hajmi), ijtimoiy-demografik omillar (aholi soni), infratuzilmaviy ko'rsatkichlar (internet qamrovi, raqamli texnologiyalar) hamda tadbirkorlik faoliyatini aks ettiruvchi o'zgaruvchilarning ta'sirini baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu omillar asosida fiksed va random effektlar modellari o'zaro solishtirilib, Hausman testi yordamida optimal model tanlanadi. Statistik tahlil natijalari asosida franchayzing faoliyatiga eng katta ta'sir ko'rsatgan omillar aniqlanadi va har bir omilning iqtisodiy mazmuni ilmiy jihatdan talqin qilinadi.

Shuningdek, tadqiqotda matematik modellashtirish asosida past rivojlangan hududlar uchun franchayzingni jalb etish strategiyasi ishlab chiqiladi. Mazkur jarayonda maxsus optimallashtirish modellaridan foydalanilib, har bir hudud uchun optimal franchayzing tarmoqlari, xizmat turlari va sarmoya oqimlari bo'yicha amaliy takliflar shakllantiriladi. Ushbu yondashuv O'zbekistonda hududlar kesimida iqtisodiy faollikni oshirish, franchayzing asosida innovatsion biznes modellarini keng joriy etish hamda ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotning yangiligi shundaki, unda birinchi marta O'zbekiston sharoitida viloyatlar kesimida franchayzing tarmog'i rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar panel regressiya modeli yordamida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlanmagan hududlar uchun franchayzingni jalb etishning samarali strategiyasi matematik modellashtirish asosida ishlab chiqiladi. Bu esa nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyat kasb etib, davlat va xususiy sektor tomonidan strategik qarorlar qabul qilishda samarali analitik vosita bo'lib xizmat qiladi. Franchayzingni makro- va mikro darajada o'rganish orqali iqtisodiy resurslar oqimini hududlararo muvozanatli taqsimlashga erishiladi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror va inkluziv rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi hududlarida franchayzing faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi makro- va mikro darajadagi omillarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan ushbu tadqiqot panel regressiya yondashuvi yordamida har bir viloyat bo'yicha olingan statistik ma'lumotlar asosida aniq va asosli xulosalar chiqarishga imkon berdi. Mazkur tahlil 2018–2025-yillar oralig'ida 12 ta viloyat bo'yicha tuzilgan panel ma'lumotlar bazasi asosida olib borildi. Tadqiqotda asosiy natijaviy ko'rsatkich sifatida franchayzing subyektlari soni qabul qilinib, ushbu ko'rsatkich har yili har bir viloyatda qanday o'zgarayotganini ifodalaydi. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa viloyatdagi yalpi ichki mahsulot (YalM), aholi soni, raqamli infratuzilma (internet qamrovi darajasi), faol tadbirkorlik subyektlari soni hamda investitsiyalar hajmi tanlab olindi.

Panel regressiya modellari yordamida mustaqil o'zgaruvchilarning franchayzing subyektlari soniga ta'siri baholandi. Hausman testi natijalariga ko'ra fiksed effekt modeli tanlandi, bu esa viloyatlarga xos bo'lgan individual xususiyatlar statistik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Fiksed effekt modeliga muvofiq, YalM ko'rsatkichi har bir viloyatda franchayzing subyektlari o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi ($\beta = 0.317$, $p < 0.01$). Ushbu natija iqtisodiy quvvati yuqori bo'lgan hududlarda franchayzingni joriy etish imkoniyatlari kengroq va barqarorroq bo'lishini anglatadi. Aholi sonining franchayzing subyektlariga ta'siri ham ijobiy ($\beta = 0.276$, $p < 0.05$) bo'lib, bu holat hududda potensial iste'mol bozorining mavjudligi bilan izohlanadi.

Tahlilning eng muhim natijalaridan biri internet qamrovi darajasining ta'siri juda kuchli bo'lib chiqqanidir ($\beta = 0.451$, $p < 0.001$). Bu O'zbekistonda raqamli infratuzilmaga ega hududlarda franchayzing, ayniqsa, xizmat ko'rsatish, elektron tijorat, logistika hamda yetkazib berish tarmoqlarida faol joriy etilayotganini anglatadi. Tadbirkorlik subyektlari soni ko'paygani sari franchayzing subyektlari soni ham ortmoqda ($\beta = 0.233$, $p < 0.05$), bu esa mahalliy biznes muhitining franchayzingni qabul qilishga tayyorligini bildiradi. Investitsiyalar hajmi ham muhim omil sifatida e'tirof etildi ($\beta = 0.190$, $p < 0.05$), ya'ni infratuzilma rivoji, yangi obyektlarning qurilishi va boshqa kapital xarajatlar franchayzing tarmoqlarining hududiy joylashuvida muhim rol o'ynaydi.

Statistik tahlillar asosida hududlar kesimida franchayzing subyektlari o'sish dinamikasidagi farqlar ham aniqlandi. Masalan, ayrim viloyatlar franchayzing subyektlari soni bo'yicha yetakchilik qilayotgan bo'lsa, ba'zi viloyatlarda ushbu ko'rsatkich ancha past darajada bo'lishi mumkin. Bu holat rivojlanmagan hududlarda franchayzing tarmoqlarini joriy etish uchun qo'shimcha strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shu maqsadda, ushbu tadqiqotda qo'shimcha ravishda matematik modellashtirish yondashuvi qo'llanildi.

Matematik modellashtirish orqali har bir hududda franchayzingdan kutilayotgan iqtisodiy foyda (F_i) va unga tegishli ustuvorlik koeffitsienti (w_i) hisobga olingan holda maqsad funksiyasi tuzildi:

$$\max Z = \sum_{i=1}^n w_i \cdot F_i$$

bu yerda:

Z — umumiy foyda.

Modelga byudjet cheklovi, aholi zichligi, mavjud infratuzilma hamda tadbirkorlik salohiyati kabi cheklovlar kiritildi. Natijada past rivojlangan hududlar uchun quyidagi yo'nalishlar optimal strategiyalar sifatida belgilandi:

- Aholi zichligi yuqori bo'lgan joylarda umumiy ovqatlanish va servis xizmatlari yo'nalishida franchayzingni joriy etish.
- Raqamli infratuzilmasi mavjud bo'lgan, biroq ish o'rinlari yetarli bo'lmagan hududlarda IT xizmatlari, kuryerlik va e-commerce franchayzlarini joriy qilish.
- Sog'liqni saqlash, farmatsevtika, ta'lim va boshqa ijtimoiy yo'nalishlarda mahalliy talabga mos, xalqaro sifat standartlariga ega franchayzlarni jalb qilish.
- Hududiy grantlar va davlat imtiyozlari yordamida mahalliy tadbirkorlarni franchayzi sifatida tayyorlash hamda ularni moliyalashtirish tizimini yo'lga qo'yish.
- Transport-logistika nuqtai nazaridan qulay, biroq iqtisodiy faolligi past bo'lgan hududlarda franchayzing asosida logistika tugunlarini tashkil etish.

Ushbu strategiyalar asosida olib borilgan modellashtirish natijalari shuni ko'rsatdiki, agar tavsiya etilgan yo'nalishlar asosida davlat siyosati shakllantirilsa, franchayzing subyektlari sonini keyingi besh yilda o'rtacha 15–20% ga oshirish mumkin. Bunda raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish, franchayzingga oid maslahat markazlari tashkil etish hamda biznesni yuritish ko'nikmalarini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida baholangan modelning statistik ko'rsatkichlari ishonchliligi yuqori bo'lib, R^2 qiymati 0.82 atrofida bo'ldi. Bu mustaqil o'zgaruvchilarning franchayzing subyektlari soniga bo'lgan ta'sirining 82% dan ortig'ini izohlab berishini ko'rsatadi. Mazkur natijalar, o'z navbatida, O'zbekiston sharoitida franchayzing rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish orqali hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish, inklyuziv o'sishni ta'minlash hamda zamonaviy biznes modellarini keng joriy etish imkonini beradi(1-jadval).

1-jadval. Panel regressiya tahlili natijalariga ko'ra, quyidagi asosiy omillar franchayzing subyektlari soniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi.

O'zgaruvchi	Koeffitsient	P-qiymat	Tafsir
X_1 (YaIM)	+0.317	0.001	Iqtisodiy quvvat oshgani sari franchayzing ortadi
X_2 (Aholi soni)	+0.276	0.005	Aholi sonining ko'pligi bozor hajmini kengaytiradi
X_3 (Internet)	+0.451	0.000	Raqamli infratuzilma kuchli bo'lgan joylarda franchayzing tezroq rivojlanadi
X_4 (Tadbirkorlar)	+0.233	0.020	Mahalliy biznes muhiti franchayzing uchun qulay bo'ladi
X_5 (Investitsiyalar)	+0.190	0.033	Sarmoya oqimi infratuzilmani yaxshilaydi

Franchayzing tizimi O'zbekiston hududiy iqtisodiyotida muhim strategik vosita sifatida namoyon bo'lishi mumkinligini panel regressiya hamda matematik modellashtirish asosida olib borilgan tadqiqot natijalari yaqqol ko'rsatadi. Muhokama bo'limida natijalar asosida mamlakat hududlaridagi franchayzing salohiyati, mavjud muammolar va istiqbolli strategiyalarni kompleks tahlil qilishga e'tibor qaratiladi. Avvalo, natijalar shuni ko'rsatdiki, franchayzing subyektlari soni iqtisodiy hamda ijtimoiy-demografik omillar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Ayniqsa, YaIM hajmi va aholi zichligi yuqori bo'lgan hududlarda franchayzing faoliyatining yuqori sur'atlarda rivojlanayotgani kuzatildi. Bu holat klassik bozor qonuniyatlariga mos bo'lib, potensial iste'mol bozorining mavjudligi, xarid qobiliyati va iqtisodiy faollik franchayzingning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun zamin yaratadi.

Biroq shuni ta'kidlash kerakki, bunday muvofiqlik barcha hududlarda mavjud emas. Ayrim viloyatlarda iqtisodiy ko'rsatkichlar nisbatan ijobiy bo'lishiga qaramasdan, franchayzing tarmoqlari sust rivojlangan. Bu holat ko'proq institutsional omillar, axborot ta'minoti, boshqaruv samaradorligi hamda xususiy sektorning franchayzingga nisbatan yetarli tushunchaga ega emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim natija raqamli infratuzilmaning franchayzing faoliyatiga ta'siri bilan izohlanadi. Internet qamrovi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari darajasi yuqori bo'lgan viloyatlarda franchayzing subyektlari soni ham ko'proq bo'lib, bu raqamli transformatsiyaning franchayzing samaradorligini oshiruvchi omil ekanini



tasdiqlaydi. Bunda, ayniqsa, logistika, elektron tijorat hamda raqamli xizmatlar sohasidagi franchayzlar yetakchilik qilmoqda. Mazkur natijalar O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi bilan hamohang bo'lib, franchayzing modelini milliy raqamli siyosat doirasida rivojlantirish zarurligini anglatadi.

Muhokama qilinayotgan muhim jihatlardan yana biri franchayzingni rivojlantirishda davlatning roli hisoblanadi. Xorijiy tajribada franchayzingni qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalari, kredit kafolatlari, axborot-konsalting markazlari hamda maxsus qonunchilik bazasi yaratiladi. O'zbekiston sharoitida ushbu vositalar hali to'liq ishga solinmagan bo'lib, bu holat franchayzingning hududiy notekis rivojlanishiga sabab bo'layotgan omillardan biri sifatida ko'riladi. Shu bois, franchayzing uchun ixtisoslashgan infratuzilmalarni yaratish, franchayzer–franchayzi o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan muhofaza qilish hamda xususiy sektorda franchayzing madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifadir.

Matematik modellashirish natijalariga tayangan holda muhokama qilish mumkin bo'lgan yana bir jihat past rivojlangan hududlarda franchayzingni joriy etishning maqbul yo'llari bilan bog'liq. Optimallashtirish modellari orqali aniqlanganidek, bu hududlarda avvalo aholining kundalik ehtiyojlariga xizmat qiluvchi tarmoqlar — umumiy ovqatlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim hamda maishiy xizmatlar franchayzlari samarali bo'lishi mumkin. Bular nisbatan past kapital talab qiladigan, biroq qisqa muddatda foyda keltiradigan modellar bo'lib, ularda mahalliy tadbirkorlarni franchayzi sifatida tayyorlash imkoniyati mavjud. Ushbu yondashuv franchayzingning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyasini kuchaytiradi, bandlikni oshiradi, tadbirkorlikni rag'batlantiradi va iqtisodiy faollikni hududlar kesimida muvozanatlashtiradi.

Tadqiqot doirasida qayd etilgan ilmiy yangiliklar nazariy va amaliy nuqtai nazardan muhim hisoblanadi. Panel regressiya modeli yordamida O'zbekiston hududlari bo'yicha franchayzingga ta'sir etuvchi omillar aniq statistik asosda baholanishi mumkinligi, matematik model orqali esa ushbu omillarni muvofiqlashtirish orqali franchayzingni maqsadli tarzda rivojlantirish mumkinligi asoslab beriladi. Ushbu metodologik yondashuvlar franchayzing faoliyatining hududiy strategiyalarini ishlab chiqish imkonini yaratadi. Davlat siyosati nuqtai nazaridan esa natijalar muhim qarorlar qabul qilishda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi: qaysi hududda qanday turdagi franchayzlar samarali bo'lishi, qanday rag'batlar va qanday infratuzilma zarurligi aniq ko'rsatkichlar asosida belgilanishi mumkin.

Muhokama bo'limi asosida quyidagilarni ta'kidlash mumkin: franchayzing faoliyati infratuzilma, aholi soni, iqtisodiy faollik va raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, davlat tomonidan franchayzing madaniyatini shakllantirish, axborot-ta'lim dasturlarini joriy etish hamda franchayzingni iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim komponenti sifatida e'tirof etish zarur. Franchayzing faqat iqtisodiy emas, balki institutsional, ijtimoiy va texnologik yo'nalishlarda ham rivojlanishni taqozo etuvchi ko'p omilli model bo'lib, uning muvaffaqiyati ushbu yo'nalishlar o'rtasidagi muvofiqlik va integratsiyaga bog'liq.

O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda raqobatbardosh kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqsadlarga erishishda franchayzing modeli zamonaviy iqtisodiy vosita sifatida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida O'zbekiston sharoitida franchayzing tarmoqlarining hududiy rivojlanishini makro- va mikro darajadagi omillar asosida panel regressiya modeli yordamida tahlil qilish hamda rivojlanmagan hududlar uchun matematik modellashirilgan strategiyalarni ishlab chiqish orqali ilmiy natijalarga erishildi. Ushbu yondashuv franchayzing tizimining iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar bilan murakkab bog'liqlikda shakllanishini chuqur anglash imkonini berdi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, franchayzing subyektlarining viloyatlar kesimida notekis rivojlanishiga ko'plab omillar — hududiy YaIM hajmi, aholi soni, raqamli infratuzilma darajasi, mahalliy biznes muhiti va investitsiyalar oqimi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, internet qamrovi va raqamli infratuzilma franchayzing modelining tez tatbiq etilishi hamda kengayishida muhim drayver sifatida namoyon bo'ldi. Bu esa zamonaviy franchayzing tarmoqlarining, ayniqsa, xizmat ko'rsatish va e-commerce yo'nalishlarining yuqori texnologiyalarga bog'liqligini tasdiqlaydi.

Panel regressiya modeli asosida olib borilgan tahlilga ko'ra, iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan viloyatlarda franchayzing tarmoqlari ko'proq rivojlanayotgan bo'lsa-da, demografik va institutsional omillar ko'pincha bu jarayonni tezlashtirish yoki susaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hausman testi natijalariga ko'ra fiksed effekt modeli eng optimal statistik natijalarni bergani sababli, har bir hududga xos alohida omillarni hisobga olish tadqiqotda muhim o'rin egalladi. Statistik ko'rsatkichlar model ishonchliligining yuqoriligini ($R^2 = 0.82$) tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotda qo'llangan matematik modellashirish yondashuvi franchayzingni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi. Unga ko'ra, past rivojlangan hududlarda franchayzingni joriy etish uchun qulay yo'nalishlar aniqlanadi. Jumladan, umumiy ovqatlanish,

sog'liqni saqlash, farmatsevtika, axborot texnologiyalari va kuryerlik xizmatlari tarmoqlarida franchayzlarni joriy etish mazkur hududlarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bu esa resurslarni maqsadli taqsimlash, mahalliy tadbirkorlarni jalb qilish, aholi bandligini oshirish hamda hududlararo iqtisodiy tenglikni kuchaytirishga zamin yaratadi.

Shuningdek, ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, franchayzingning muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat iqtisodiy omillarga, balki institutsional va ijtimoiy muhitga ham bevosita bog'liq. Davlat tomonidan franchayzingni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining (soliq imtiyozlari, kredit kafolatlari, maslahat markazlari) kuchaytirilishi, mahalliy hokimiyatlarning axborot-tushuntirish ishlari bilan shug'ullanishi hamda franchayzing to'g'risidagi qonunchilik bazasining takomillashtirilishi tizimning kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, xususiy sektorni ham ushbu tizimga faol jalb qilish, franchayzi sifatida tadbirkorlarni tayyorlash va ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u O'zbekiston kontekstida ilk bor panel regressiya va matematik modellashirish yondashuvlarini birlashtirgan holda franchayzing tizimining hududiy rivojlanish modelini taklif etdi. Ushbu model nafaqat mavjud holatni tahlil qilish, balki amaliy choralarni shakllantirish, hududiy strategiyalarni ishlab chiqish hamda istiqboldagi investitsiya oqimlarini rejalashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, tadqiqotdan olingan xulosalar O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot", "Raqamli transformatsiya" va "Hududiy rivojlanish strategiyasi" bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanishi uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Yakunda aytish mumkinki, franchayzing modeli O'zbekiston hududlari uchun barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashda katta salohiyatga ega. Mazkur model iqtisodiy resurslar oqimini optimallashtirish, zamonaviy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish, mahalliy biznesni kuchaytirish hamda xorijiy sarmoyalarni jalb etish imkoniyatini yaratadi. Franchayzing asosida shakllangan iqtisodiy mexanizm, ayniqsa past rivojlangan hududlarda samarali ishlasa, respublika miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiluvchi universal vosita sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barney, J. Firm resources and sustained competitive advantage // *Journal of Management*. – 1991. – Vol. 17, № 1. – P. 99–120. – DOI: 10.1177/014920639101700108.
2. Dant, R. P., Kaufmann, P. J. Structural and strategic dynamics in franchising // *Journal of Retailing*. – 2003. – Vol. 79, № 2. – P. 63–75. – DOI: 10.1016/S0022-4359(03)00012-0.
3. Gernigon, B., Chadwick, K. Franchising and the legal framework. – International Franchise Association Report. – 2010. – 45 p.
4. Lafontaine, F., Shaw, K. L. Targeting managerial control: Evidence from franchising // *RAND Journal of Economics*. – 2005. – Vol. 36, № 1. – P. 131–150. – DOI: 10.2307/1593723.
5. Porter, M. E. Clusters and the new economics of competition // *Harvard Business Review*. – 1998. – Vol. 76, № 6. – P. 77–90.
6. Rubin, P. H. The theory of the firm and the structure of the franchise contract // *Journal of Law and Economics*. – 1978. – Vol. 21, № 1. – P. 223–233. – DOI: 10.1086/466905.
7. Williamson, O. E. The economic institutions of capitalism: Firms, markets, relational contracting. – New York: Free Press, 1985. – 450 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100